

**MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING  
SHAKL, METOD VA VOSITALARI**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФОРМ, МЕТОДОВ И СРЕДСТВ  
ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ**

**IMPROVEMENT OF FORMS, METHODS, AND TOOLS  
OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION**

***Turobova Zulfizar Ulugbek qizi***

*Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni  
o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) mutaxassisligining  
2-bosqich magistranti*

[Zulfizar580@gmail.com](mailto:Zulfizar580@gmail.com) Tel:+998905141775

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishning ahamiyati, ularning shakllari, metodlari va vositalari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Maqolada zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlarning ushbu jarayondagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Аннотация:** В статье подробно рассматривается важность совершенствования духовно-просветительской работы, её формы, методы и средства. Также анализируется роль современных технологий и интерактивных методов в этом процессе, а также даются рекомендации по эффективной организаций духовно-просветительской работы.

**Abstract:** This article provides a detailed overview of the importance of improving spiritual and educational work, its forms, methods, and tools. It also analyzes the role of modern technologies and interactive methods in this process. Additionally, the article offers recommendations for the effective organization of spiritual and educational activities.

**Kalit so'zlari:** ma'naviy-ma'rifiy ishlar, shakllar, metodlar, vositalar, ta'lim, madaniyat, texnologiyalar.

**Ключевые слова:** духовно-просветительская работа, формы, методы, средства, образование, культура, технологии.

**Keywords:** spiritual and educational work, forms, methods, means, education, culture, technologies.

**KIRISH (ВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)**

Bugun insoniyat taraqqiyoti o'zining yuqori bosqichiga chiqdi, deyish mumkin. Texnika-texnologiyalarning rivojlanishi, insoniyat hayotining farovonlashuvi ortgani sayin jamiyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar ham ortib bormoqda. Umuman bugungi kunda insonni doimiy ravishda o'ylantirib kelayotgan narsalar, jumboqli hodisalar, yechimini

kutayotgan muammolar son-sanoqsiz. Ammo, shularning ichida eng muhimi va qolgan barcha muammolarni hal etishga turtki bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisa – ma’naviyat targ‘iboti masalasidir. Ma’naviyat qanchalik buyuk hodisa bo‘lmisin uni targ‘ibotsiz o‘z-o‘zidan insoniyat ongiga singdirib bo‘lmaydi. Tom ma’nodagi ma’naviy yuksalishga targ‘ibot jarayonisiz erishib bo‘lmaydi. Zero, ma’naviyat biz erishishimiz lozim bo‘lgan cho‘qqining asosiy manzilga yetaklovchi yo‘lidir. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, “Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir<sup>1</sup>” degan so‘zlari, aslida ma’naviyatning inson hayotidagi ahamiyatini chuqur anglatadi. Bu so‘zlarda, ma’naviyat faqatgina o‘zimizni yaxshilashning yo‘li emas, balki jamiyatning mustahkamligi va kelajagi uchun zarur bo‘lgan asoslardir.

Ma’naviy yuksalish, faqat tashqi ko‘rinish va materialistik muvaffaqiyatlarni o‘lchov qilib qaramasdan, ichki kamolot, axloqiy fazilatlar, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni rivojlantirishni ta’kidlaydi. Bundan tashqari, ma’naviyat jamiyatda o‘zaro ishonchni va hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Aholining axloqiy va ma’naviy qadriyatlar asosida yashashlari, ularning bir-birlariga bo‘lgan e’tibori va hamjihatligi jamiyatda barqarorlikni ta’minlaydi. Ma’naviy yuksalish jamiyatda barchaning birgalikda ishlashini, umumiylar manfaatlar yo‘lida bir-birini qo‘llab-quvvatlashini rag‘batlantiradi. Shu nuqtai nazardan, ma’naviyatni targ‘ib qilish orqali jamiyatning intellektual, axloqiy va estetik rivojlanishini rag‘batlantirish, kelajakda nafaqat xalqning, balki butun mamlakatning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Bunday yuksalish, nafaqat madaniyat, balki iqtisodiy va siyosiy sohalarda ham muvaffaqiyatlarga olib keladi, chunki ijobjiy axloqiy qadriyatlar nafaqat individual, balki jamiyatning rivojlanishiga ham hissa qo‘sadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/LITERATURE REVIEW)**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari”<sup>2</sup> degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma’naviyma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti,

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2022. – B. 263

<sup>2</sup> Mirziyoyev.Sh.M. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-son

ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmagan. “Jamiyatda ta’lm va tarbiyaning mafkurasizlashib qolishi yoki unda mafkura amaliyotini noto‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi doimo insonlarni maqsadsiz qolishga hamda ularni o‘zligidan uzoqlashishga olib kelgan”<sup>3</sup> shu maqsadda mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- Yaxlit tizimni shakllantirish – ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor o‘rtasidagi uzviy hamkorlik asosida yo‘lga qo‘yish.

- Tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish – yoshlarning ma’naviy tahdidlarga qarshi immunitetini oshirish uchun maqsadli loyihamalar ishlab chiqish va amalga oshirish.

- Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish – ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish.

- Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish – internet, ijtimoiy tarmoqlar va media resurslar orqali keng qamrovli targ‘ibot ishlarini olib borish.

- Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish – barcha ishtirokchilar faoliyatini yagona strategiya asosida tashkil etish va samaradorlik monitoringini yo‘lga qo‘yish.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldaggi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” gi Qarori, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqotga muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida “global maydonda kechayotgan tahlikali jarayonlarga nisbatan faqat mustaqil va qatiy yondashuvga ega bo‘lgan, ma’naviy va jismoniy barkamol yoshlargina qarshi tura oladi”<sup>1</sup> gan qatlamini tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Uzoq o‘tmishdan hozirgi davrgacha milliy

<sup>3</sup> Toxiriyon A. va boshq. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari. – T.: “Navro‘z”, 2015. – B. 44

tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g‘oya va amaliy harakatlar zamirida keljak avlodning milliy tafakkurini mustahkam shakllantirish masalalari har bir davrning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib kelgan. Shu boisdan, jamiyatga zamonaviy innovatsion milliy g‘oyalar tatbiq etish, yangi ijtimoiy texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlar milliy tafakkurini yuksaltirish ustivor ahamiyatga ega. Jamiyatni ma’naviy taraqqiy etishi, ta’lim tizimini isloh qilishda o‘z davrining ilg‘or taraqqiyparvar g‘oyalarining milliy yuksalishga erishish borasidagi qarashlarini integrativ-kognitiv mezonlari asosida yangi mexanizmlarini ishlab chiqish samarali natijalarga olib keladi. Qolaversa, yoshlar milliy tafakkurini yuksaltirish orqali jamiyatda birdamlik va hamjihatlik tafakkurni shakllantirish mumkin. “Mamlakatimizda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun, avvalo, yosh, iqtidorli kadrlar zarur”<sup>4</sup>. Bu esa, o‘z navbatida, yangi tafakkurga ega bo‘lgan zamonaviy irrigator kadrlar tayyorlash tizimini muttasil takomillashtirib borish, ushbu yo‘nalish bilan bog‘liq muammolarni siyosatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish hamda ilmiy nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Jamiyatning ma’naviy yuksalishi va madaniy rivojlanishi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tizimli ravishda olib borilishiga bog‘liq. Bu jarayon insonlarning axloqiy va madaniy saviyasini oshirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish hamda yosh avlodni yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish esa ularning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

### **NATIJA (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)**

Ma’lumki har qanday targ‘ibotning negizida ma’lum bir tizim yaratish maqsadi turadi. Shunday ekan qanday tashkilot yoki idora bo‘lmisin avvalo, uni ichki muhiti o‘rganiladi. Kelib chiqilgan xulosalar natijasida targ‘ibot ishlari boshlanadi. Shu ma’noda, jamoatchilik fikrini o‘rganish muayyan jamiyatdagi odamlarning xohish istagi, kayfiyati, muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha ma’lumot olish va jamoatchilik fikrini boshqarish imkoniyatini beradi. Jamoatchilik fikri bu muayyan bir jamiyatdagi yoki davlatdagi mavjud holat bo‘yicha kishilarning fikrlari va xulosalari yig‘indisi. Shu sababli, ma’naviyat targ‘ibotchisi doimo jamoatchilik fikrini o‘rganib borishi, targ‘ibot tashviqot ishlarida to‘plangan ma’lumotlar asosida muayyan xulosalar chiqarishi, har doim o‘z ma’ruzalarini jamoatchilik fikri asosida tayyorlashi va unga ijobiy ta’sir ko‘rsatish va uni boshqarishi maqsadga muvofiq. Agar biz jamiyatni yaxlit bir organizm deb tasavvur etadigan bo‘lsak, jamoatchilik fikri uning pulsidir. Aynan jamoatchilik fikrini o‘rganish orqali mavjud muammolar bo‘yicha aniqroq, ishonchliroq va batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Muammoga turlicha qarashlardan nazar tashlash imkoniyati yuzaga keladi. Muammo haqidagi ma’lumotlaringizni reprezentativligi oshadi. Natijada, muammolarni

<sup>4</sup> Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 173.

bartaraf etish bo'yicha ham eng to'g'ri tashhisni qo'yish mumkin bo'ladi. Jamoatchilik fikri o'zgaruvchan bo'lib, uni boshqarish uchun muntazam o'rganib borish va unga asoslangan holda muammolar yechimini topishga harakat qilish xalq va mahalliy vakillik organlari o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Muammolarni hal etish osonlashadi, mahalliy rahbarlarning xalq oldidagi obro'e'tibori ortadi, legitimligi ta'minlanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda turli shakllar qo'llaniladi. Ular quyidagilar:

- Ma'ruzalar va suhbatlar – jamiyatdagi dolzarb ma'naviy masalalar bo'yicha mutaxassislar va ziyorolar tomonidan o'tkaziladi.
- Madaniy tadbirlar – teatr tomoshalari, konsert dasturlari, adabiy kechalar orqali xalqning ma'naviy olamini boyitish.
- Seminar va treninglar – yoshlarga va pedagoglarga ma'naviyatga oid mavzularda malaka oshirish imkonini yaratish.
- Davra suhbatlari – muayyan mavzu yuzasidan erkin fikr almashish.
- Ijtimoiy loyihalar – jamiyatning turli qatlamlari orasida ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning metodlari:

- Axborot-tushuntirish metodi – ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ibot olib borish.
- Bahs-munozara metodi – yoshlar o'rtasida erkin fikr almashish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish.
- Mustaqil ta'lim va o'qish – shaxsiy rivojlanish uchun kitoblar, maqolalar va ilmiy manbalardan foydalanish.
- Ekskursiyalar va tashriflar – tarixiy joylar, muzeylar va diqqatga sazovor maskanlarga borish orqali ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish.
- Ko'rgazma va fotoloyihalar – ma'rifiy mavzularda vizual targ'ibot materiallari orqali ta'sir o'tkazish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning vositalari:

- Kitoblar va maqolalar – badiiy, ilmiy-ommabop hamda tarixiy adabiyotlar orqali ma'naviy boyliklarni yetkazish.
- Audiovizual vositalar – filmlar, hujjatli lavhalar, ijtimoiy roliklar orqali ma'naviy g'oyalarni singdirish.
- Internet va ijtimoiy tarmoqlar – zamonaviy texnologiyalar yordamida keng qamrovli ma'rifiy ishlarni amalga oshirish.
- Ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, televideniye va radio orqali ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish.
- Ma'naviyat xonalari va kutubxonalar – yoshlarning ilm olishiga xizmat qiluvchi maskanlar.

Bu yerda, ma'naviyatni targ'ib qilish va jamiyatni ma'naviy jihatdan rivojlantirish uchun qo'llaniladigan metodlar, vositalar va shakllar to'liq tavsiflangan. Shu bilan birga, ushbu ishlarning amalga oshirilishida muvaffaqiyatga erishish uchun targ'ibot jarayonlarini doimiy ravishda optimallashtirish va yangilab borish zarurligini ta'kidlash muhimdir. Ayni paytda davlatimiz rahbariyati olib borayotgan ijobjiy ishlar va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun olib borilayotgan ijobjiy ishlar va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun olib borilayotgan say-harakatlari va erishilayotgan amaliy natijalar xususida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga yoshlarni ruhlantirish, uning jamiyatimiz, davlatimiz, mustaqilligimizga bo'lgan ishonch e'tiqodini mustahkamlash olimlarimiz, peshqadam ziyorolarimiz, ma'ruzachilarimiz, mafkuraviy ishlar bilan shug'ullanuvchi barcha targ'ibot tashviqotchilarning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi.<sup>5</sup>

### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar faqatgina bir tomonlama bo'lib qolmasligi kerak; ular jamiyatning turli qatlamlarini, yoshlar va kattalarni, turli ijtimoiy guruhlarni o'z ichiga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Misol uchun, kattalar va mutaxassislar uchun o'tkaziladigan seminarlar va treninglar, yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash uchun esa, teatr tomoshalari, konsertlar va boshqa madaniy tadbirlar orqali ular bilan muloqot qilish zarur. Shu bilan birga, ma'naviyat targ'ibotchilari va rahbarlari jamiyatdagi muammolarni va xalqning ehtiyojlarini tushunishlari uchun muntazam ravishda jamoatchilik fikrini o'rganib borishlari kerak. O'rganilgan ma'lumotlar asosida targ'ibot ishlarining samaradorligini oshirish va turli xil guruhlarga moslashtirish muhimdir. Agar jamoatchilik fikri bilan doimiy aloqa o'rnatilsa, targ'ibotning ta'siri yanada kuchayadi, chunki har bir insonning ehtiyojlarini va istaklari inobatga olinadi. Bundan tashqari, ma'naviyat targ'ibotining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni, internet va ijtimoiy tarmoqlarni keng qo'llash zarur. Bugungi kunda, yoshlar va keng omma ko'proq internet orqali ma'lumot olishadi, shuning uchun onlayn platformalarda ma'naviy mavzularda targ'ibot ishlarini amalga oshirish, ma'rifiy materiallarni keng tarqatish juda muhimdir. Ma'rifiy videolar, bloglar, vebinarlar va boshqa interaktiv shakllar orqali ma'naviyatni targ'ib qilish zamon talablariga mos keladi.

Ko'rgazmalar va fotoloyihalar orqali ham vizual tasvirlar orqali ma'naviy g'oyalarni singdirish juda samarali usul hisoblanadi. Bu usul ko'proq o'quvchilarga va yoshlar orasida ommalashgan, chunki vizual materiallar tez qabul qilinadi va uzoq vaqt esda qoladi. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ishlarini olib borishda mahalliy rahbarlarning roli alohida ahamiyatga ega. Ularning o'z joyida amalga oshiradigan targ'ibot ishlarini orqali jamiyatni birlashtirish, barqarorlikni ta'minlash va ma'naviyatni rivojlantirishga hissa qo'shish mumkin. Mahalliy rahbarlarning

<sup>5</sup> Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik.-TOShKENT, Akademiya, 2005. – B. 80-91

ishonchi va hurmati oshgan sari, ularning amalga oshirgan ishlarining samarasi kuchayadi. Bundan tashqari, ma'naviyat xonalari va kutubxonalar kabi ilmiy-ma'rifiy muassasalar yoshlar va boshqa fuqarolar uchun bilim olish, ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu maskanlar o'zining qulayligi va resurslari bilan ma'naviy bilimlarni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, kutubxonalar va ilmiy markazlar talabalarni kitoblar, maqolalar va ilmiy tadqiqotlar orqali yangi bilimlar bilan tanishtiradi va ularning o'zlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ma'naviyatni targ'ib qilishning assosiy maqsadi jamiyatda yuqori axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, insonlarni bir-biriga hurmat va ishonch bilan qarashga undash, va umumiy manfaatlar yo'lida birlashishdir. Bu yo'lda har bir shaxsning o'zining axloqiy mas'uliyatini tushunishi va jamiyatga o'z hissa qo'shishi muhimdir. Yuksak ma'naviyatga ega jamiyat qurish uchun har bir fuqaroning ma'naviy savodxonligini oshirish, ularga ma'naviyatning muhimligini tushuntirish zarur. Shu bilan birga, ma'naviyat targ'ibotining samaradorligi davomiy o'rganish, yangilanish va amaliyotga asoslanishi kerak. Targ'ibot ishlari har doim dolzarb va muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Targ'ibot jarayonida muammolarni aniq va ishonchli tarzda aniqlash, ularni hal qilishga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqish, o'zgaruvchan jamoatchilik fikrini boshqarish orqali jamiyatda muhim o'zgarishlarga erishish mumkin.

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)**

Xulosa qilib aytganda ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishning shakl, metod va vositalari haqida batafsil tahlil qilindi. Ma'naviyat targ'iboti jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun juda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar va turli axborot vositalarining o'rni alohida e'tiborga loyiq. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda turli shakllar (ma'ruzalar, madaniy tadbirlar, seminarlar) va metodlar (axborot-tushuntirish, bahs-munozara, ekskursiyalar) samarali qo'llanilishi, shuningdek, axborot vositalaridan (kitoblar, audiovizual materiallar, internet va ijtimoiy tarmoqlar) keng foydalanish muhimdir.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ma'naviyatni targ'ib qilishda tashkilotlar o'rtasida yaxlit tizimni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va jamoatchilik fikrini o'rganish, muvaffaqiyatli natijalarga erishishga yordam beradi. Xususan, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, ularga zamonaviy ma'naviy qadriyatlarni singdirish, ijtimoiy loyihamalar va madaniy tadbirlar orqali amalga oshirilishi zarur. Shu bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy ishlar faqat bir tomonlama emas, balki jamiyatning barcha qatlamlarini o'z ichiga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu jarayon faqatgina yoshlarni emas, balki kattalarni, mutaxassislarini va barcha fuqarolarni ham qamrab olishi lozim. Ma'naviyatni targ'ib qilishda mahalliy rahbarlarning roli, shuningdek, ilmiy-ma'rifiy muassasalar – kutubxonalar va ma'naviyat xonalari kabi maskanlarning ahamiyati katta.

Jamiyatda yuqori axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va umumiy manfaatlar yo‘lida birlashish maqsadida, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni doimiy ravishda yangilab borish, optimallashtirish va ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash zarur. Targ‘ibot ishlarining samaradorligini oshirish uchun, jamoatchilik fikrini muntazam ravishda o‘rganish va unga mos ravishda strategiyalar ishlab chiqish lozim. Faqat shunday holda jamiyatda haqiqiy ma’naviy yuksalishga erishish mumkin.

### **ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – B. 263
2. Mirziyoyev. Sh.M. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-son
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 173
4. Bazarov O.H. Talaba-yoshlar ma’naviy-axloqiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari. Fals. d. (PhD) ilm. dar. olish uchun yozilgan diss. - Toshkent, 2019. – B. 75.
5. Toxiriyon A. va boshq. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari. – T.: “Navro‘z”, 2015. – B. 44
6. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g‘oyasi: O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim bakalavriat bosqichi uchun darslik.-TOSHKENT, Akademiya, 2005. – B. 80-91
7. Begmatov A., Rustamova R. Milliy g‘oya tarqiboti va madaniy-mahrifiy tadbirlar. – Toshkent, “Mahnaviyat”, 2007, – B. 14-15